



TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASHNING KICHIK BIZNES RIVOJIGA TA'SIRI

Ilmiy rahbar: Rustamova Faridaxon Anvarjonovna

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti,

Maxmudjonov Abubakir Dilshod o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti

“Bank ishi” yo‘nalishi 1-kurs K-14-25 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes rivojiga tadbirkorlik muhitini yaxshilashning ko‘rsatadigan ta’siri har tomonlama tahlil qilinadi. Tadbirkorlik muhitining huquqiy, institutsional, moliyaviy va infratuzilmaviy jihatlari kichik biznes subyektlari faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi yoritib beriladi. Bundan tashqari, qulay ishbilarmonlik muhiti orqali yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish, mavjud korxonalar faoliyatini kengaytirish hamda bandlikni oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi kichik biznesning raqobatbardoshligini kuchaytirishi, investitsiyalarni jalb etishi va hududiy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik muhiti, tadbirkorlik faoliyati, investitsiyalar, raqobatbardoshlik, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, hududiy rivojlanish.

Kirish. Tadbirkorlik muhiti iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib, u tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan umumiy shart-sharoitlar majmuini anglatadi. Ushbu muhit tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishi, yangi biznes subyektlarining tashkil etilishi, mavjud korxonalarning kengayishi hamda iqtisodiy faollikning oshishi uchun zarur



bo'lgan huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy va institutsional sharoitlarni o'z ichiga oladi [1]. Qulay tadbirkorlik muhiti mavjud bo'lgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes jadal rivojlanadi, bandlik darajasi oshadi va aholining farovonligi yuksaladi.

Huquqiy muhit tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan qonuniy shart-sharoitlar majmuasini ifodalaydi va tadbirkorlik muhitining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U tadbirkorlarning huquqlari, majburiyatlari, erkinliklari va javobgarliklarini belgilovchi huquqiy normalar tizimiga asoslanadi. Barqaror va shaffof huquqiy muhit mavjud bo'lgan sharoitda tadbirkorlar o'z faoliyatini uzoq muddatli rejalashtirish, investitsiya kiritish va biznesni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aksincha, huquqiy aniqlik yetishmagan holatlarda tadbirkorlik faolligi pasayadi va norasmiy iqtisodiyot ulushi ortadi.

Huquqiy muhitning asosiy vazifasi tadbirkorlik faoliyatining qonuniy asoslarini yaratish va mulk daxlsizligini kafolatlashdan iboratdir. Tadbirkor uchun eng muhim omillardan biri bu uning mulki va daromadlari qonun bilan himoyalanganligiga bo'lgan ishonchdir [2]. Shu ishonch mavjud bo'lgan taqdirdagina tadbirkor yangi loyiha boshlashga, ishlab chiqarishni kengaytirishga yoki innovatsion g'oyalarni joriy etishga jur'at etadi. Huquqiy muhitning mustahkamligi tadbirkorlar va davlat o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, huquqiy muhit biznesni ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash, ruxsatnomalar olish, soliq va hisobot topshirish tartiblarini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarning soddalashtirilishi va aniq tartibga solinishi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ortiqcha byurokratik to'siqlar va murakkab tartib-taomillar esa kichik biznes subyektlari uchun qo'shimcha xarajatlar va vaqt yo'qotilishiga olib keladi. Shu bois huquqiy muhitning samaradorligi uning qulayligi va tushunarligi bilan bevosita bog'liqdir. Huquqiy muhit shuningdek nizolarni hal etish mexanizmlarini ham qamrab oladi. Sud tizimining mustaqilligi, tezkorligi va adolatliligi tadbirkorlar uchun muhim



kafolat hisoblanadi. Biznes jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy nizolar qonuniy va xolis hal etilgan taqdirda, tadbirkorlik faoliyatining barqarorligi ta'minlanadi. Shu bilan birga, huquqiy maslahat va axborot xizmatlarining mavjudligi tadbirkorlarning huquqiy savodxonligini oshiradi va xatolar xavfini kamaytiradi.

Iqtisodiy muhit tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi makro va mikroiqtisodiy omillar majmuasidan iborat bo'lib, u biznes yuritish sharoitlarini belgilovchi asosiy muhitlardan biri hisoblanadi. Ushbu muhit inflyatsiya darajasi, iqtisodiy o'sish sur'atlari, bozor hajmi, talab va taklif nisbatlari, aholi daromadlari hamda umumiy iqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bog'liqdir. Qulay iqtisodiy muhit mavjud bo'lgan sharoitda tadbirkorlik faolligi oshadi, kichik biznes subyektlari o'z faoliyatini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Iqtisodiy muhitning barqarorligi tadbirkorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror iqtisodiy sharoitda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini rejalashtirish, xarajatlarni prognoz qilish va daromadni oldindan baholash imkoniyati mavjud bo'ladi. Inflyatsiya darajasining yuqori bo'lishi esa kichik biznes uchun jiddiy xavf tug'diradi, chunki bu holat ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga va foyda marjasining qisqarishiga olib keladi.

Iqtisodiy muhit bozor infratuzilmasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Rivojlangan bozor mexanizmlari, raqobat muhitining mavjudligi va erkin narx shakllanishi tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiradi. Kichik biznes subyektlari raqobat sharoitida mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishga, innovatsiyalarni joriy etishga va xarajatlarni kamaytirishga intiladi. Bu esa umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi [3]. Shuningdek, iqtisodiy muhit aholi daromadlari va iste'mol qobiliyati bilan ham bog'liqdir. Aholi daromadlari oshgan sari ichki bozor kengayadi va kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Ayniqsa xizmat ko'rsatish va chakana savdo sohalarida faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga juda sezgir bo'ladi. Iqtisodiy muhitning yana bir muhim jihatini hududiy rivojlanish bilan bog'liq. Ayrim



hududlarda iqtisodiy faollik yuqori bo'lsa, boshqalarida past bo'lishi mumkin. Shu sababli kichik biznesni hududiy rivojlantirish iqtisodiy muhitni muvozanatlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Moliyaviy muhit tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlari va moliyaviy resurslardan foydalanish shart-sharoitlarini o'z ichiga oladi. Kichik biznes uchun moliyaviy muhit ayniqsa muhim bo'lib, u kreditlar, investitsiyalar, grantlar va boshqa moliyaviy manbalarga kirish imkoniyatini belgilaydi. Qulay moliyaviy muhit mavjud bo'lgan sharoitda tadbirkorlar o'z biznesini boshlash, rivojlantirish va kengaytirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni jalb eta oladi. Moliyaviy muhitning asosiy elementi bank tizimi va moliya institutlari hisoblanadi. Banklarning kredit siyosati, foiz stavkalari va kredit shartlari kichik biznes faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar kredit olish jarayoni murakkab va foiz stavkalari yuqori bo'lsa, kichik biznes subyektlari moliyaviy resurslardan foydalanishda qiyinchilikka duch keladi. Bu esa yangi bizneslarning tashkil etilishini va mavjud korxonalarning kengayishini sekinlashtiradi.

Moliyaviy muhitda moliyaviy savodxonlik ham muhim o'rin tutadi. Tadbirkorlarning moliyaviy rejalashtirish, xarajatlarni boshqarish va risklarni baholash bo'yicha bilimga ega bo'lishi biznes samaradorligini oshiradi. Moliyaviy savodxonlik past bo'lgan sharoitda mablag'lardan noto'g'ri foydalanish, qarzdorlikning ortishi va biznesning muvaffaqiyatsiz yakunlanish ehtimoli kuchayadi. Shuningdek, investitsiya muhiti ham moliyaviy muhitning ajralmas qismi hisoblanadi. Ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish kichik biznesning texnologik yangilanishi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [4]. Investitsiya uchun qulay sharoitlar mavjud bo'lgan muhitda innovatsion loyihalar rivojlanadi va iqtisodiy faollik kuchayadi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan muhitlarning yaxshilanishi kichik biznes rivojiga bevosita va bilvosita kuchli ta'sir ko'rsatadi. Kichik biznes subyektlari faoliyati ko'p jihatdan tashqi muhit sharoitlariga bog'liq



bo‘lib, huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, institutsional hamda infratuzilmaviy muhitning holati ularning barqaror ishlashi va kengayish imkoniyatlarini belgilab beradi. Ushbu muhitlarning izchil ravishda yaxshilanishi kichik biznes uchun qulay sharoit yaratadi, tadbirkorlik faolligini oshiradi va iqtisodiy o‘rishni jadallashtiradi. Avvalo, huquqiy muhitning yaxshilanishi kichik biznes rivojining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Qonunlarning aniqligi, barqarorligi va tushunarligi tadbirkorlarning ishonchini mustahkamlaydi. Agar tadbirkor o‘z mulki, daromadi va faoliyati qonun bilan himoyalanganiga ishonsa, u biznesni kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va uzoq muddatli investitsiya kiritishga intiladi. Huquqiy muhit soddalashgan sharoitda biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish, faoliyatni boshlash va yuritish xarajatlari kamayadi, norasmiy faoliyat qisqaradi va kichik biznes subyektlari soni ortadi. Bu esa bandlikning oshishiga va iqtisodiy faollikning kengayishiga olib keladi.

Iqtisodiy muhitning yaxshilanishi ham kichik biznes rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiyaning past darajada saqlanishi, ichki bozor hajmining kengayishi va aholi daromadlarining oshishi kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Barqaror iqtisodiy sharoitda tadbirkorlar xarajatlarni aniq rejalashtiradi, talabni to‘g‘ri baholaydi va ishlab chiqarish hajmini oshirishga jur‘at etadi. Natijada kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshiradi, mahsulot va xizmatlar sifati yaxshilanadi hamda bozor munosabatlari rivojlanadi. Iqtisodiy muhit yaxshilangani sari kichik biznes iqtisodiyotning yetakchi drayveriga aylanadi.

Moliyaviy muhitning yaxshilanishi kichik biznes rivoji uchun ayniqsa muhim hisoblanadi. Moliyaviy resurslarga keng kirish imkoniyati mavjud bo‘lgan sharoitda tadbirkorlar yangi loyihalarni boshlash, texnologiyalarni yangilash va ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniga ega bo‘ladi [5]. Kredit olish shartlarining soddalashuvi, foiz stavkalarining maqbulligi va moliyaviy instrumentlarning xilma-xilligi kichik biznes subyektlarining investitsion faolligini oshiradi. Moliyaviy



muhit yaxshilanganda kichik biznesning moliyaviy barqarorligi kuchayadi, qarzdorlik xavfi kamayadi va biznesning uzoq muddatli rivojlanishiga zamin yaratiladi.

Institutsional muhitning takomillashuvi ham kichik biznes rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat va mahalliy boshqaruv organlarining samarali faoliyati, biznesni qo'llab-quvvatlovchi institutlarning mavjudligi tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratadi. Ma'muriy tartib-taomillarning soddalashtirilishi, davlat xizmatlarining ochiqligi va tezkorligi kichik biznesning vaqt va resurslarini tejaydi. Natijada tadbirkorlar asosiy e'tiborni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va bozorni kengaytirishga qaratadi. Institutsional muhit yaxshilangan sari kichik biznesning rasmiy iqtisodiyotdagi ulushi oshadi va iqtisodiy tizim yanada shaffof bo'ladi.

Infratuzilmaviy va raqamli muhitning rivojlanishi ham kichik biznes uchun katta ahamiyatga ega. Transport, logistika, energetika va axborot-kommunikatsiya tizimlarining rivojlanganligi kichik biznes faoliyatining samaradorligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar va elektron xizmatlarning joriy etilishi biznes jarayonlarini tezlashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, elektron savdo va raqamli platformalar kichik biznes subyektlariga hududiy cheklovlarsiz faoliyat yuritish imkonini beradi, bu esa ularning daromadini oshiradi va raqobatbardoshligini kuchaytiradi [6].

Umuman olganda, tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan muhitlarning yaxshilanishi kichik biznes rivojiga kompleks va tizimli ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, institutsional va infratuzilmaviy muhitlar o'zaro uyg'un holda rivojlangan taqdirda kichik biznes barqaror o'sadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi oshadi. Shu sababli, ushbu muhitlarni doimiy ravishda takomillashtirish kichik biznesni rivojlantirishning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, institutsional hamda infratuzilmaviy



muhitlarning yaxshilanishi kichik biznes rivojining asosiy omili hisoblanadi. Ushbu muhitlar qanchalik barqaror, shaffof va qulay bo'lsa, kichik biznes subyektlarining faoliyati shunchalik samarali bo'ladi. Natijada yangi ish o'rinlari yaratiladi, bandlik darajasi oshadi, tadbirkorlik faolligi kuchayadi va iqtisodiy o'sish barqarorlashadi. Shu bilan birga, qulay tadbirkorlik muhiti kichik biznesning raqobatbardoshligini oshiradi, investitsiyalarni jalb etadi va jamiyatning ijtimoiy farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kichik biznes va tadbirkorlik: (oliy o'quv yurtlarining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma) / M.R. Boltaboyev (va boshq.); O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. - 280 b.
2. Bazarova, G. "SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN SOCIO ECONOMIC DEVELOPMENT ROLE AND IMPORTANCE." Экономика и социум 10 (125) (2024): 53-57.
3. Djalalova I.A., Tursunov R.T. Biznes strategiyasi. O'quv o'llanma. – T.: TDIU, 2011 - 249 b.
4. Shavkatbek E., Muxlisa T. THE NEED FOR FOREIGN COUNTRIES TO STUDY EXPERIMENTS IN THE DEVELOPMENT OF AN INNOVATIVE ECONOMY //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 37. – №. 4. – С. 219-223.
5. Абдуллаев Б., Эргашев Х. ИННОВАЦИОННОЕ МЫШЛЕНИЕ В УПРАВЛЕНИИ ПРОИЗВОДСТВАМИ //Инновационные технологии на транспорте: образование, наука, практика. – 2017. – С. 246-249.
6. Mavludaxon T., Shavkatbek E. O 'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) //Tadqiqotlar. – 2025. – Т. 61. – №. 6. – С. 100-105.